

Ertaga bahar...

Ertaga bahar...

Ertaga bahar...

INSON va qonun

2023-YIL
28-FEVRAL
SESHANBA

№ 08 (1368)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/



KONSTITUTSIYAVIY O'ZGARISHLAR – OLIMLAR NIGOHIDA

KUNI kecha Toshkent davlat yuridik universitetida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Konstitutsiyaviy qonun loyihasini tayyorlashga mas'ul bo'lgan – Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari hamda Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitalari tomonidan ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Unda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar konstitutsiyaviy huquq sohasining olimlari va yosh tadqiqotchilar ishtirokida muhokama qilindi.



Jahongir SHIRINOV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-
huquq masalalari qo'mitasi raisi;

lament a'zolari, xalqaro va xorijiy ekspertlar ishtirokidagi muhokamalarda berilgan takliflar asosida har tomonlama tahlil qilinib, ularning dolzarblari loyihada aks ettirildi.

Takliflarda fuqarolar inson huquqlarini ta'minlash, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quv-

vatlash, ta'lim va ilm-fan sohalarini taraqqiy ettirish, xususi mulk daxlsizligini yanada mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq masalalarga ustuvor ahamiyat qaratilganini ko'rish mumkin.

220 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi va 100ga yaqin xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi. Kelib tushgan har bir taklif uning xalqchilligi, aholi uchun ortiqcha byurokratiya keltirib chiqarmasligi, "Inson qadri uchun" degan tamoyilga mos kelishi, Konstitutsiyaning boshqa normalariga, olib borilayotgan siyosatimizga, belgilab olgan strategiyamizga hamda xalqaro huquq normalariga zid kelmasligi, o'zbek davlatchiligining tarixiy taraqqiyotiga, buyuk ajdodlarimizning madaniy merosiga va milliy qadriyatlarimizga putur yetkazmasligi kabi mezonlar asosida chuqur tahlil etildi.

Davomini 8-betda o'qiydiz



1 MARTDAN NIMALAR O'ZGARADI?

Etnosport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi

PREZIDENTIMIZNING 2022-yil 25-mayda qabul qilingan "Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra:

- 2023-yil 1-martdan har yili etnosport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi.
- 2023-yildan an'anaviy tarzda:
- Toshkent shahrida har yili bir marotaba etnosport turlari bo'yicha "Uzbekistan Ethno Games" respublika festivali;
- Xiva shahrida har ikki yilda bir marotaba Xalqaro etnosport festivali tashkil qilinadi.

Mahalliy aviaqatnovlar yo'lga qo'yiladi

Hududlarni bir-biri bilan o'zaro bog'lash maqsadida quyidagi yangi yo'nalishlarda muntazam aviaqatnovlar boshlanadi:

Samarqand – Nukus, Samarqand – Mo'ynoq, Samarqand – Termiz, Buxoro – Termiz; Namangan – Termiz; Namangan – Nukus.

Unitar korxona shaklida yuridik shaxs tashkil etish to'xtatiladi

2023-yil 1-martdan boshlab unitar korxona yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat tashkiliy-huquqiy shaklida yuridik shaxs tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi.

Tadbirkorlar soliq ustidan sudga to'g'ridan-to'g'ri shikoyat qilishi mumkin

Soliq to'lovchilarga soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlari ustidan to'g'ridan-to'g'ri sudga shikoyat qilish huquqi beriladi.

Yangi imkoniyat

Axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha yuridik shaxslarga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali tijorat xizmatlarini ko'rsatishga ruxsat beriladi.

Huquqbuzarliklar elektron rasmiylashtiriladi

Elektr energiyasi va tabiiy gazni nazorat qilish hamda hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlaridagi yoqlig'i-energiya resurslari iste'moli to'g'risidagi ma'lumotlar monitoring qilinadi.

Shuningdek, elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarlik bo'yicha tuzilgan dalolatnomalarni elektron rasmiylashtirish va tegishli ma'lumotlarni "E-ma'muriy ish" tizimiga kiritish tartibi joriy etiladi.

Ma'ruf LUKCHAYEV,

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

2 MOHIYAT

Yangi Mehnat kodeksi umumiy va maxsus qismlarga ajratilgan. Umumiy qismda tartibga solinadigan munosabatlar, kodeksning vazifalari, prinsiplari, mehnat qonunchiligining amal qilish sohalari, jamoa sharnomasi va kelishuvlari, muddatlarni hisoblash haqida tushunchalar berilgan. Maxsus qismda esa ishga joylashtirishdan to mehnat nizolarini kó'rib chiqishgacha bo'lgan mehnat munosabatlarini tartibga solish ko'rsatib o'tilgan.

Yangi Mehnat kodeksining 104-moddasida mehnat shartnomasining mazmuni ko'rsatilgan bo'lib, u ikki qismdan iborat. Birinchi qismida mehnat shartnomasiga kiritilishi shart bo'lgan shartlar belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

- ☒ ish joyi;
- ☒ mehnat vazifasi;
- ☒ ishning boshlanish sanasi;
- ☒ mehnatga haq to'lash shartlari, (shu jumladan, xodimning tarifi stavkasi yoki maoshi miqdori, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va rag'batlantiruvchi to'lovlar);
- ☒ xodim bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilgan taqdirda mehnat shartnomasining muddati;
- ☒ ish vaqti va dam olish vaqti rejimi;
- ☒ ish joyidagi mehnat sharoitlarining xususiyatlari ko'rsatilgan holda normal sharoitlardan farq qiladigan sharoitlardagi ish uchun kafolatlar va kompensatsiyalar;
- ☒ zarur bo'lgan hollarda ishning xususiyatini belgilaydigan shartlar.

Ikkinchi qismiga esa mehnat shartnomasiga kiritilishi mumkin bo'lmaydigan qo'shimcha shartlar kiritilgan:

- ☒ ish joyini aniqlashtirish;
- ☒ ishga qabul qilish chog'idagi dastlabki sinov haqida;
- ☒ bir necha kasbda (lavozimda) ishlaganlik to'g'risida;
- ☒ davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilmaslik haqida;
- ☒ agar o'qitish ish beruvchining mablag'lari hisobidan olib borilgan bo'lsa, xodimning o'qishdan keyin shartnomada belgilangan muddatdan kam bo'lmagan muddatni ishlab berish majburiyati to'g'risida;
- ☒ xodimni qo'shimcha sug'urta qilish turlari va shartlari haqida;
- ☒ xodimga va uning oila a'zolariga taqdim etiladigan ijtimoiy-maishiy sharoitlar to'g'risida;
- ☒ xodimning ish sharoitlariga nisbatan qo'llaniladigan xodimning va ish beruvchining mehnat va boshqa qonunchilikdagi huquqlari va majburiyatlarini aniqlashtirish haqida.

MEHNAT

qonunchiligida

NIMALAR

O'ZBEKISTON Respublikasining Mehnat kodeksi 2022-yil 28-oktabrda yangi tahrirda qabul qilindi. Kodeks 2023-yilning 30-apreldan kuchga kiradi. Yangi Mehnat kodeksi 7 bo'lim, 34 bob, 581 moddadan iborat.

ISH BERUVCHI VA XODIM O'RTASIDAGI MUNOSABAT

Amaldagi Mehnat kodeksida ish joyi, mehnat vazifasi, ishning boshlanish sanasi, mehnatga haq to'lash shartlari, xodim bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilgan taqdirda mehnat shartnomasining muddati ko'rsatilishi belgilangan.

Yangi Mehnat kodeksida muddatli mehnat shartnomasining eng ko'p muddati 3 yil etib belgilandi. Amaldagi kodeksda esa muddatli mehnat shartnomasi 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatga tuzilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Xodimning topshirilayotgan ishga layoqatligini tekshirib ko'rish va uning mehnat shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni bajara olish imkoniyatini bilish maqsadida dastlabki sinov muddati qo'llaniladi.

Yangi Mehnat kodeksiga amaldagi Mehnat kodeksida ko'rsatilgan dastlabki sinov muddati qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi kiritildi:

- ☒ ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda ish beruvchi ilgari qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo'yicha bekor qilgan bo'lsa, o'sha shaxslar;
- ☒ ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bo'yicha ushbu ish beruvchida o'qishni o'tagan o'quvchilar.

Shuningdek, tashkilotlarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, bosh buxgalterlar hamda tashkilotlar alohida bo'linmalarining rahbarlari uchun olti oydan oshmagan muddatga dastlabki sinov qo'llanilishi mumkinligi, qolgan hollarda dastlabki sinov muddati uch oydan oshmasligi lozimligi belgilab qo'yildi.

MEHNAT SHARTNOMASI


Mehnati qonunchiligiga mehnat shartnomasini bekor qilish bo'yicha o'zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, muddatli mehnat shartnomasini bekor qilishda ish beruvchi xodimni 3 kun oldin xabardor qilish shartligi belgilab qo'yildi. Amalda mehnat shartnomasi muddati tugashi bilan bekor qilinadi, ogohlantirish muddati ko'rsatilmagan.

Xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish bo'yicha xodim ish beruvchini 14 kun oldin ogohlantirib, ariza bilan murojaat qiladi. Shu 14 kunlik muddatning o'tishi ish beruvchi arizani qabul qilib olgandan keyin hisoblanishi belgilab qo'yildi. Amaldagi Mehnat kodeksida mazkur 14 kunlik muddatning o'tishi qachondan boshlanishi ko'rsatilmagan.

Shuningdek, ayrim toifadagi xodimlar uchun alohida muddatlar belgilandi. Ular:

- ☒ tashkilot rahbari – 2 oy;
- ☒ tashkilot o'rinbosarlari, tashkilotning bosh buxgalteri va tashkilot alohida bo'linmasining rahbari – 1 oy;
- ☒ mavsumiy xodimlar – 3 kalendar kun;
- ☒ vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan shaxslar – 3 kalendar kun;
- ☒ mikrofirmalar ish beruvchilarining xodimlari – 7 kalendar kun;
- ☒ yakka tartibdagi tadbirkorlarda ishlaydigan shaxslar – 7 kalendar kun;
- ☒ uy ishchilari – 7 kalendar kun oldin mehnat shartnomasini bekor qilish bo'yicha ish beruvchiga ariza bilan murojaat qiladi.



XODIMLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Amalda agar jamoa kelishuvida yoki jamoa shartnomasida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish uchun kasaba uyushmasi qo'mitasining oldindan roziligini olish nazarda tutilgan bo'lsa, mehnat shartnomasi bunday roziliksiz bekor qilinmaydi. Kiritilgan o'zgartirish kasaba uyushmalari tomonidan xodimlarning huquqlarini himoya qilishda ularning vakolatlarini cheklashga olib keladi, natijada xodimlarning huquqlari to'liq ta'minlanmaydi.





O'ZGARMOQDA?



YIGIRMA BIR...

Yangi Mehnat kodeksiga ko'ra, ta'tillar bo'yicha ham o'zgartirish kiritilib, har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomiyligi yigirma bir kalendar kun etib belgilandi. Shuningdek, xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun davomiyligi ikki kalendar kun bo'lgan, biroq jami sakkiz kalendar kundan ko'p bo'lmagan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi.

Yangi Mehnat kodeksida ham ta'tillarni bo'lib olish mumkinligi belgilangan. Bunda ta'tillar bo'linganda ta'tilning bir qismi 14 kalendar kundan kam bo'lmisligi belgilab qo'yilgan. Amalda bu muddat 12 kunni tashkil etadi.

Yana bir yangilik: karantin choralari amalga oshirilayotgan, favqulodda holat joriy etilgan davrda va butun aholining yoki uning bir qismining hayotiga yoxud normal yashash sharoitlariga tahdid soluvchi boshqa hollarida xodimning yozma arizasiga ko'ra uzluksiz davomiyligi ko'pi bilan olti oygacha ish haqi saqlanmaydigan ta'til berilishi mumkinligi kiritildi.

Amaldagi Mehnat kodeksiga ko'ra, xodim aybsiz bekor turib qolganligi uchun uning o'rtacha ish haqi saqlanadi. Agar xodim o'zining aybi bilan bekor turib qolsa, ish haqi to'lanmaydi. Yangi Mehnat kodeksida ham bu holatlar ko'rsatib o'tildi, lekin xodimning bekor turib qolishida o'zining ham, ish beruvchining aybi bo'lmasa, bekor turib qolgan vaqt uchun ish haqining kamida uchdan ikki qismi miqdorida haq to'lanishi belgilab qo'yildi.

Amaldagi Mehnat kodeksida xodimga intizomiy jazo tayinlangan vaqtda unga faqat rag'batlantirish choralari qo'llanilmasligi ko'rsatilgan. Yangi Mehnat kodeksida esa xodimga intizomiy jazo amal qilib turgan vaqtda rag'batlantirish bilan birga mukofot (bayramlar, shu jumladan kasb bayramlari, yubileyalar) munosabati bilan va hokazolar) pullari ham berilmasligi ko'rsatib o'tilgan.

Abror EZOXONOV,

"Madad" NNT bosh mutaxassisi

TOSHKENT

FUQARO Z.P. Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Olmazor tuman bo'limiga yoshga doir pensiyaga chiqmoqchi bo'lib murojaat etgani, lekin 1983-yildan 1993-yilgacha ishlagan davrini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etmagani uchun pensiya tayinlashda hisobga olinmaganidan norozi bo'lib, Olmazor tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

10 yillik
ish staji yo'qqa
chiqqan



Aniqlanishicha, haqiqatan ham fuqaroning 1983-yildan 1993-yilgacha ishlagan davri pensiya tayinlashda hisobga olinmagan. Aslida Mehnat kodeksining 81-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 59-bandiga asosan mehnat daftarchasi ish stajini hisoblaydigan asosiy hujjat sanaladi.

Prezidentimizning 2021-yil 3-fevraldagi 6155-sonli qarorining 10-bandiga ko'ra, pensiya tayinlashda shaxsning ish haqi va mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasi yuritilmagan davr -

2005-yildan avvalgi yillar uchun ish staji shaxsning mehnat daftarchasidagi yozuvlar asosida tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinmasdan hisoblanishi lozimligi belgilab qo'yilgan.

Shunga ko'ra, Z.P. manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudga pensiya bo'limining pensiya tayinlash to'g'risidagi qarorini haqiqiy emas, deb topish va fuqaroning 1983-yildan 1993-yilgacha ishlagan davrini ish stajiga qo'shib hisoblash yuzasidan shikoyat arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan, pensiya bo'limining qarori haqiqiy emas, deb topildi va fuqaroning o'n yildan ortiq ishlagan davrini ish stajiga qo'shib hisoblash majburiyati yuklatildi.

Shamsiddin AMONOV,
Olmazor tuman adliya bo'limi boshlig'i

UYI BUZILGAN FUQARONING MANFAATI UNUTILGAN

UY-JOYI joylashgan yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyoji uchun tegishli tartibda olib qo'yilgan 4 nafar fuqaro kompensatsiya puli yoki yer uchastkasi o'rniga teng miqdorda yer uchastkalari berilmayotganidan norozi bo'lib, Bektemir tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.



O'rganish natijasiga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudga da'vo arizasi kiritildi hamda arizalar qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan 4 nafar fuqaro foydasiga 6 milliard so'mdan ortiq miqdordagi kompensatsiya to'lab berish majburiyati tegishli tashkilotga yuklatildi.

Jumladan, adliya bo'limiga shu masalada murojaat qilgan fuqaro M.T. ga tegishli bo'lgan uy-joy yer uchastkasi ham davlat va jamoat ehtiyoji uchun olib qo'yilib, buzilgan. Evaziga kompensatsiya puli yoki yer uchastkasi o'rniga avvalgi huquq turlari saqlangan holda teng miqdorda yer uchastkasi ajratish ochiq qolib kelgan.

Vaholanki, Yer kodeksi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda yer uchastkalarini olib qo'yilishiga oid qator farmon va qarorlarda kompensatsiya puli yoki yer uchastkasi o'rniga avvalgi huquq turlari saqlangan holda teng miqdorda yer uchastkasini ajratish belgilangan.

Shunga ko'ra, fuqaro manfaatini ko'zlab sudga da'vo arizasi kiritildi va sud qaroriga ko'ra M.T. foydasiga 1,5 milliard so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

Bekzod SAFAROV,
Bektemir tuman adliya bo'limi boshlig'i

4 JARAYON

SO'NGGI yillarda sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillash-tirish borasida zaruriy islohotlar amalga oshirilmoqda. Markaz va uning hududiy bo'limlariga sud-tergov idoralari tomonidan ekspertizalar tayinlash hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mutaxassis fikrini olishga ehti-yoj yildan-yilga oshib bormoq-da. Agar ekspertlar tomonidan 2020-yilda 923,8 mingta obyekt bo'yicha tadqiqot o'tkazilib, 28 ming 678 ta ekspertiza xulosasi va mutaxassislar fikri berilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb 6,6 mingtaga oshgan, ya'ni 1 million 244 ming 956 ta obyekt bo'yicha tadqiqot o'tkazilib, 35 ming 306 ta eks-pertiza xulosasi va mutaxassis fikrlari berilgan.



Hukumatning 2022-yil 13-dekabr-dagi "Sud ekspertlik faoliyatini tartib-ga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "Sud ekspertlari-ni faoliyatini reyting tizimida ba-holab borish tartibi" belgilandi. Shu-ningdek, Adliya vazirligi huzuridagi "Sud ekspertlik faoliyatini rivojlanti-rishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyati" yo'lga qo'yildi.

Fuqarolar hamda sud-tergov or-ganlarining sud ekspertiza xulosala-riga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlan-tirish maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida keyingi 3 yilda 10 ta ("Sud-lingvistika", "Sud-kompyu-ter-texnik", "Sud-avtomobil yo'llari", "Sud-elektrotexnika", "Sud-psixologik", "Oziq-ovqat mahsulotlari sud eks-pertizasi", "Sud-soliq", "Oziq-ovqat mahsulotlarini baholash ekspertiza-si", "Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasi" va "Bank sohasida boy berilgan foydani aniqlash tadqiqoti") yangi ekspertiza turlari joriy qilinib, Markazda amalga oshiriladigan eks-pertiza turlari 44 tadan 54 taga, mu-taxassislik yo'nalishlari esa 73 taga yetkazildi.

Yaqinda Respublika sud ekspertiza markaziga O'zbekiston akkreditatsi-ya markazi O'zAKK tomonidan O'z DST



Sud ekspertizaning zamonaviy imkoniyatlari:

XALQARO STANDARTGA MOS YUTUQ

ISO/IEC 17025:2019 xalqaro akkreditat-siya standarti bo'yicha akkreditatsiya guvohnomasi topshirildi.

Tadbirda OAV vakillari, Adliya va-zirligi, mamlakatimizning sud eksper-tiza muassasalari mas'ul xodimlari, BMTning giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi rahbari Ashita Mittal, AQSh Davlat de-partamentining narkotik moddalar va huquqni muhofaza qilish masalalari bo'yicha O'zbekistondagi bo'linmasi rahbari Jek Anderson ishtirok etdi.

Akkreditatsiya nima?

Akkreditatsiya bu – Markaz faoli-yatining standartning belgilangan ko'rsatkich, mezon va talablariga mos kelishini rasman tasdiqlanish jarayoni hisoblanadi.

Akkreditatsiya – buyurtmachilar-ni laboratoriya bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotlarning sifati va va-kolatligiga bo'lgan ishonchini ta'min-lash mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Akkreditatsiyaning asosiy maq-sadi – tadqiqotlar, testlar va o'lchov natijalari yagonaligining ta'minlanishi va tan olinishi bilan bog'liq. Akkredi-tatsiyaga ega bo'lishi uning tadqiqot natijalarini aniq va ishonchli ekanligini ko'rsatadi.

Attestatni qo'lga kiritish uchun...

Markaz faoliyatida sifat menejment tizimini ISO 17025:2019 standart talab-lari bo'yicha tashkil etish va amali-yotga tatbiq etish bilan bog'liq akkre-ditatsiya ishlari 2017-yildan boshlab BMTning giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurashishning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxona-sining Markaziy Osiyo davlatlari uchun 2015–2020-yillarga mo'ljallangan "Il-miy tadqiqotlar va tendensiyalar tahlili" mavzusidagi loyihasining "O'zbekis-ton Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi ekspert-krimina-listik laboratoriyalari imkoniyatlarini mustahkamlash" komponenti doirasida bajarildi.

Loyiha doirasida akkreditatsiya bo'yicha xalqaro maslahatchilar jalb etildi va Markaz laboratoriyalari faoli-yatining xalqaro standart talablariga muvofiqlik darajasi baholandi. Xal-qaro konsultantlarning o'rganilgan tahlil natijalari, tavsiyalari yuzasidan chora-tadbir belgilandi va aniqlan-gan kamchiliklar bartaraf etildi.

Markaz xodimlari ISO 17025:2019 xalqaro standart talablari bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish va amali-yotga joriy etish, validatsiya va veri-fikatsiya, o'lchov noaniqligi, tuzatish

harakatlarini o'tkazishni nazorat qilish, tadqiqotlar uzviyligini kuzatish, DNK va narkotik moddalar ekspertizasi-ni zamonaviy imkoniyatlari, akkre-ditatsiya sohasi va ichki audit o'tka-zish mavzulari bo'yicha o'quv seminar va treninglarida ishtirok etib, maxsus sertifikatlariga ega bo'lishdi.

Markazning "Odam DNKsi sud bio-logik ekspertizasi", "Materiallar, ash-yolar va buyumlar kriminalistik eksper-tizasi", "Sud fonografiya ekspertizasi" va "Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi" laboratoriyalarida sifat menejment hujjatlarini ishlab chiqish va amaliyot-ga joriy etish bo'yicha ekspert-masla-hatchilar yordami jalb etildi.

Standart talablariga asosan Mar-kazning sifat sohasidagi siyosati, sifat bo'yicha qo'llanmasi va 21 ta umumiy jarayon hujjatlari, laboratoriyalarning texnik jarayon hujjatlari, akkreditatsiya sohalari bo'yicha yo'riqnomalari ish-lab chiqildi va tasdiqlandi.

Shuningdek, yaqin hamkorlar BMTning giyohvandlik va jinoyatchi-likka qarshi kurashishning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxona-si va AQSh davlat departamenti gi-yohvand moddalarni nazorat qilish va huquqni muhofaza qilish xalqaro Byurosi Markazni xalqaro akkreditat-siyadan o'tkazish jarayonida yaqin-dan ko'maklashdi.



Markaz xodimlari sifat menejmen-ti talablari asosida maxsus kurslarda o'qitilib, malaka oshirishdi va tegishli sertifikatlariga ega bo'lishdi. Akkredi-tatsiyaga mas'ul xodimlar chet el taj-ribasini o'rganib qaytdi va sifat me-nejmentining xorijiy amaliyoti Markaz faoliyatiga tatbiq etildi.

Shu bilan birga, xorijdan, xususan Litvadan maxsus maslahatchilar gu-ruhi Markaz laboratoriyalari faoliya-tini o'rganishga jalb etildi va ularning maslahatlari asosida bir qator hujjat va tartiblar zamonaviy talablarga moslashtirildi.

Markaz sinov laboratoriyalari 2022-yilning 4-choragida O'zbekiston akkreditatsiya markazi davlat unitar korxonasining auditorlari tomonidan tashqi audit tekshiruvidan o'tkazildi.

Xalqaro standart talablarining Markaz laboratoriyalari amaliyotiga tatbiq etilishi, avvalambor, tashkilot-dagi boshqaruv sifatini oshirishga, taraflar uchun jarayonlarni shaffof qilishga, sud ekspertlik faoliyatining samaradorligini oshirishga, risklarni kamaytirishga, tashqi audit va tek-shiruvlardan o'tishda ishonch paydo bo'lishiga yordam beradi.

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Xalqaro hamkorlik va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi



SURXONDARYO

ENAGALAR
DAROMAD SOLIG'I
TO'LAMAYDI

OILALARDA bolaga qarab turish va ularni parvarish qilish xizmati (enagalik) o'zini o'zi band qiladigan shaxslar shug'ullandigan faoliyat turi hisoblanadi.

Mazkur shaxslar soliq organlarida o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishlari lozim.

Ro'yxatdan o'tish soliq organining mobil ilovasi, elektron platformasi yoki my.gov.uz orqali, shuningdek, soliq organiga kelgan holda amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tgan shaxsqa QR-kodli ma'lumotnoma beriladi. O'zini o'zi band qilgan shaxslar daromad solig'i to'lamaydi.

Mazkur shaxslar ishlagan davrini ish staji sifatida hisoblanishi uchun ixtiyoriy ravishda BHMning 1 baravari miqdorida (300 ming so'm) ijtimoiy soliq to'laydi.

Shuningdek, yangi Mehnat kodeksiga ko'ra enaga sifatida 16 yoshdan shug'ullanish mumkinligi belgilangan.

Xurshid NURALIYEV,

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

TOSHKENT

PISKENT tumanida yashovchi fuqaro Sh. Murodov Yashnobod tuman 2-sonli Bolalar-o'smirlar sport maktabi direktori tomonidan ta'tilda bo'lishiga qaramasdan asossiz ravishda ishdan bo'shatilgan. Bundan norozi bo'lgan fuqaro ishga tiklashda amaliy yordam berishni so'rab, Yashnobod tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Taqdimnoma
talabini bajarmagan
DIREKTOR...

Aniqlanishicha, Sh. Murodov haqiqatan ham bolalar-o'smirlar sport maktabi direktorining 2022-yil 29-martdagi buyrug'iga asosan 2022-yilning 1-mart va 28-mart kunlari ishga kelmaganligi sababli ishdan bo'shatilgan.

Vaholanki, sport maktabi direktorining 2022-yil 2-martdagi buyrug'iga asosan Sh. Murodov 2-mart kunidan boshlab mehnat ta'tiliga chiqishi belgilangan. Shunga ko'ra, haqiqatda foydalanilgan qo'shimchad olish kunlarini hisoblaganda ishga chiqish kuni 30-mart deb belgilanishi

kerak edi. Ammo direktorning buyrug'ida ta'til muddatini hisoblashda kamchilikka yo'l qo'yilib, ishga chiqish kuni 28-mart deb belgilangan.

Shunga binoan, 28-mart kuni ishga kelmaganligi asos qilinib, Sh. Murodov Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismi 4-bandiga ko'ra ishdan bo'shatilgan.

Oliy sud Plenumining 1998-yil 17-apreldagi "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanilishi haqida"gi qarorining 36-bandiga ko'ra, agar korxonaning ichki mehnat tartib-qoidalaridagi o'z mehnat vazifalarini bir mar-

ta qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan nojo'ya xatti-harakatlar ro'yxatida progul uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin deb ko'rsatilgan bo'lsa, unda Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismi 4-bandiga ko'ra, yo'l qo'yiladi deb belgilangan.

Ammo, mazkur sport maktabining ichki mehnat tartib-qoidalaridagi o'z mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzish deb hisoblandigan nojo'ya xatti-harakatlar ro'yxatida xodimning ish joyida uzrsiz sabablarga ko'ra qancha vaqt bo'lmaganligi (to'la ish kuni, uch soatdan ortiq va shu kabi) progul deb topilishi aniq belgilab qo'yilmagan.

Adliya bo'limi tomonidan aniqlangan qonun buzilishi yuzasidan, maktab direktori nomiga taqdimnoma kiritildi. Taqdimnoma talablari bajarilmagandan so'ng, fuqaro manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga ishga tiklash, majburiy progul kunlari uchun ish haqi hamda 12 million ma'naviy zararni undirish to'g'risida da'vo arizasi kiritildi.

Sud tomonidan da'vo talablari qanoatlantirilib, Sh. Murodovning buzilgan mehnat huquqlari tiklandi. Bolalar-o'smirlar sport maktabi direktorining tegishli buyrug'i bekor qilindi. Sh. Murodovga majburiy progul kunlari uchun ish haqi hamda ma'naviy zarar uchun 49 million 975 ming so'm to'lab berildi.

Javohir JO'RAYEV,

Yashnobod tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi

O'gay ota-ona ham
ALIMENT TO'LAYDI

— O'GAY ota-ona bilan bola o'rtasida ham aliment munosabatlari bo'lishi mumkinmi?

Nargiza KOMILOVA,
Buxoro viloyati



— Oila kodeksining 127-moddasiga ko'ra, o'gay ota-ona yoki o'gay onaning tarbiyasida yoki ta'minotida bo'lgan voyaga yetmagan o'gay o'g'il va o'gay qizlarning ota-onasi yo'q bo'lsa yoxud o'z ota-onasidan yetarli mablag' ololmayotgan bo'lsa, ularga ta'minot berish majburiyati o'gay ota yoki o'gay ona zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Bu aliment majburiyati qon-qarindoshlik munosabatiga asoslangan bo'lmay, o'gay ota yoki o'gay ona tomonidan o'gay bolalarni tarbiyalaganlik yoki ta'minlaganlik yuridik faktiga asosan kelib chiqadi. O'gay bolalarga o'gay ota yoki o'gay ona tomonidan tarbiya va ta'minot berganlik yuridik fakti ularning bir oilada birga yashaganliklari bilan tasdiqlanishi mumkin. Aliment majburiyatini belgilash uchun o'gay ota yoki o'gay ona bilan o'gay bolalarning uzoq vaqt birga yashagan bo'lishlari shart emas.

O'gay ota yoki o'gay ona bilan o'gay bolalar o'rtasidagi aliment majburiyati ta'minot berish uchun majbur bo'lgan boshqa qarindoshlar bo'lmagan holda vujudga keladi. Oila kodeksining 128-moddasiga ko'ra, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj, o'gay ota yoki o'gay onaning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, ularga ta'minot berish majburiyati o'gay o'g'il va o'gay qizlar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Qonunchiligimizda o'gay bolalarning o'gay ota yoki o'gay onaga aliment berish majburiyati ham belgilangan. Amaldagi Oila kodeksining 127-moddasiga ko'ra, mazkur majburiyat bolalarning o'z ota onasiga ta'minot berish majburiyatlariga o'xshashdir. O'gay bolalarda o'gay ota-onaga aliment to'lash majburiyatining kelib chiqishi uchun, birinchidan, o'gay ota yoki o'gay onaning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasligi, ikkinchidan, ta'minot talab qiluvchi o'gay ota yoki o'gay ona mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bo'lishi shart.

Aliment to'lovchi bolalarning o'zi voyaga yetgan mehnatga layoqatli va ta'minot berish imkoniyatiga ega bo'lishlari shart. Bu talablar ham aliment majburiyatini belgilashda zaruriy shart hisoblanadi.

Quyidagi hollarda sudga o'gay o'g'il yoki o'gay qizni mehnatga layoqatsiz yordamga muhtoj o'gay ota yoki o'gay onaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish huquqi berilgan. Bunga o'gay o'g'il va o'gay qizning tarbiyasi va ta'minoti uchra uzoq davom etmagan (ya'ni, 5 yildan kam muddatni tashkil etgan) bo'lishi, shuningdek, o'gay ota yoki o'gay ona o'gay o'g'il va o'gay qizni tarbiyalash yoki unga ta'minot berish borasidagi o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi kiradi.

Savolga Qorovulbozor tuman FHDYo bo'limi 1-toifali inspektori **Gulmira AKMURODOVA** javob berdi

6 BILASIZMI?

PREZIDENTIMIZNING idoraviy hujjatlarni amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish tashabbusi bilan 2022-yil 16-sentabrda Vazirlar Mahkamasining "Shahar yo'lovchilar transportida ayrim toifadagi fuqarolarga bepul yurish huquqini beruvchi imtiyozli transport kartalarini berish yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Shahar yo'lovchilar transportida kimlar bepul yuradi?

Mazkur qarorga binoan, quyidagi shaxslarga shahar yo'lovchi transportida bepul yurishga imtiyozli transport kartalari berilishi belgilandi:

- ☑ 1941–1945 yillardagi urush qatnashchilari jumlasidan bo'lmish harbiy xizmatchilar;
- ☑ 1941–1945 yillardagi urush nogironlari va urushning II guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs;
- ☑ 1941–1945 yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnati va benuqson harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar;
- ☑ Afg'oniston Respublikasida va boshqa mamlakatlarning hududidagi jangovar harakatlarda qatnashgan sobiq baynalmilalchi jangchilar jumlasidan bo'lmish fuqarolar;
- ☑ haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt bo'yicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar;
- ☑ Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar;
- ☑ nogironligi bo'lgan ko'zi ojiz shaxslar va nogironligi bo'lgan ko'zi ojiz shaxsga safarlarda hamrohlik qiluvchi shaxs.



Shahar yo'lovchilar transportida ayrim toifadagi fuqarolarga bepul yurish huquqini beruvchi imtiyozli transport kartalarini berish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ya'ni, Toshkent va Samarqand shaharlarida 2023-yil 1-yanvardan boshlandi. Respublikamizning qolgan barcha shaharlarida esa 2023-yil 1-maydan boshlab beriladi.

Aholiga yaratilgan qulayliklardan yana biri shuki, ushbu imtiyozli transport kartalarini berish yuqoridagi qaror bo'yicha davlat xizmatlari markazi yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YalDXP) orqali amalga oshiriladi. Bunda murojaat qiluvchi davlat xizmatlaridan foydalanish uchun vakolatli organ-ga o'zi yoki u vakolat bergan shaxs kelib, murojaat etadi. Yoxud davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun YalDXPda ro'yxatdan o'tadi va so'rovnomani to'ldiradi.

Vakolatli organ so'rovnomani olganidan so'ng murojaat qilgan shaxs yuqoridagi nazarda tutilgan toifaga kirishini Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati hamda Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining axborot tizimlari orqali ikki ish kunida o'rganib, imtiyozli transport kartasini berish yoki uning berilishini rad etish haqida qaror qabul qiladi. Keyin bir ish kuni ichida imtiyozli transport kartasini rasmiylashtiradi hamda uni vakolatli shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlab, murojaat qiluvchiga topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuboradi.

Gulnora PANJIYEVA,

Termiz tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

Hozirgi kunda ko'pchilik ichki o'rindoshlikni rasmiylashtirishni mehnat shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li bilan amalga oshiradi. Vaholanki, amaldagi Mehnat kodeksining 88-moddasida mehnat shartnomasining shartlari sifatida ijtimoiy va texnik shartlar keltirilgan bo'lib, ularni o'zgartirish uchungina qo'shimcha kelishuv tuzilishi nazarda tutilgan.

Amaliyotda xodimning asosiy mehnat shartnomasidagi hech bir shart o'zgarmagan holda qo'shimcha kelishuv tuziladi. Bu holda nima qilish kerak, ichki o'rindoshlik bilan alohida mehnat shartnoma tuzib, xuddi tashqi o'rindoshni qanday ishga rasmiylashtirilsa, ichki o'rindoshlikni ham xuddi shu tartibda rasmiylashtirish kerak bo'ladi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 432–442-moddalarida esa shu jihatlari aniq belgilab qo'yildi. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktabrdagi "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 297-son qarorida ham juda ko'p chalkashliklar bor edi. Bugungi kunda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi qabul qilinishi bilan ushbu chalkashliklarga barham berilmoqda. Yangi Mehnat kodeksi kuchga kirishi bilan 297-sonli qaror ham barcha uchun tushunarli bo'ladi va amaliyot hamma birlashadi.

Bu hozirgi kunda ham qo'llanilishi kerak bo'lgan amaliyot o'zi aslida. Lekin juda ko'pchilik, hattoki huquqshunoslarning o'zida ham bu noto'g'ri amaliyot ketmoqda. Ichki o'rindoshlikni ko'pchilik noto'g'ri talqin qiladi. Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 297-sonli qarori asosida tasdiqlangan nizomning 2-bandiga ko'ra, o'rindoshlik asosida ishlash – xodimning o'zining asosiy ishini bajarishidan tashqari asosiy ishidan bo'sh vaqtida mehnat shartnomasi asosida boshqa haq to'lanadigan ishini bajarishi o'rindoshlik hisoblanadi.

Mazkur nizomning 7-bandiga ko'ra, o'rindoshlik asosida ishlashda o'rindoshlik asosida ishlashning davomiyligi xodimlarning ushbu toifasi uchun belgilangan ish vaqti normasining yarmidan ortiq bo'lishi mumkin emas (sog'liqni saqlash tizimi vrach xodimlari bundan mustasno). Xodim asosiy ish joyidagi mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'lgan kunlarda u o'rindoshlik

O'RINDOSHLIK deganda o'zining asosiy ishidan tashqari vaqtda alohida haq to'lanadigan ishda mehnat shartnomasi asosida ish bajarish tushuniladi. Bugungi kunda ko'pchilik o'rindoshlikni noto'g'ri talqin qiladi. Ya'ni, ichki o'rindoshlikning mazmunini ko'pchilik yaxshi anglab yetmaydi.

O'RINDOSHLIK ASOSIDA ISHLASH

deganda nima tushuniladi?



asosida to'liq ish kunida ishlashi mumkin.

Agar tashkilotda o'rindoshlar uchun ish vaqti davomiyligining har kungi yarim normasiga rioya etilishi mumkin bo'lmagan taqdirda ish vaqtini jamlangan holda hisoblab yuritishga yo'l qo'yiladi. Ish vaqti jamlangan holda hisoblab yuritilganda o'rindoshlik asosida ish vaqtining umumiy davomiyligi hisobga olinadigan davr uchun o'rindoshlik asosidagi lavozim bo'yicha ish vaqti normasining yarmidan ortiq bo'lmashligi kerak. Bunda hisobga olinadigan davr bir oydan ortiq bo'lmashligi, kunlik ishning (smenaning) davomiyligi esa – o'n ikki soatdan ortiq bo'lmashligi kerak.

Ichki o'rindoshlik asosida ishlashda ish vaqtini hisobga olish asosiy ish bo'yicha va o'rindoshlik asosidagi ish bo'yicha alohida-alohida yuritiladi.

O'rindoshlik ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin. O'rindoshlik ichki bo'ladimi, tashqi bo'ladimi, bir xil tartibda rasmiylashtirilishi va bir xil tartibda bekor qilinishi kerak.

Sherzod TOLIBOV,

Marg'ilon shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Qurilish maydonida yong'in xavfsizligi ta'minlangan bo'lishi shart!

HAR qanday qurilish obyektida yong'in xavfsizligi ta'minlangan bo'lishi shart. Bu esa o'sha qurilishning bosh tarixida, ya'ni loyiha hujjatlarida o'z aksini topishi lozim.


Yong'in-ga qarshi tadbirlar talab darajasida puxta ishlangan bo'lishi, qurilish jarayonida ularga qat'iy amal qilinishi zarur. Doimiy va muvaqqat quriladigan binolar o'rtasidagi yong'in-ga qarshi oraliqlar, avtomobil yo'llari, piyodalar uchun yo'laklar, ko'priklar belgilangan me'yorlarga muvofiq bo'lishi zarur. Bunday joylarda yonishga moyil ashyolarning xavfsiz saqlanishi, suv ta'minoti tarmoqlari va kanalizatsiyalarni kiritish, elektr tarmoqlari va yoritkichlarni o'rnatish, yong'in paytida ishlash uchun gidrantlarni o'rnatish yoki shu maqsad uchun suv olish manbalarini tayinlash, olov yoqish va chekish uchun xavfsiz joylarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Qurilish maydonini tayyorlash davridayoq kanalizatsiya va suv tarmog'ini kiritish, yong'in gidrantlari bir-biridan 100 metrdan va foydalaniladigan binodan 5 metrdan ko'p bo'lmagan masofada joylashishi lozim.

Gidrantlar joylashgan yerga yoritkichlar o'rnatilgan bo'lib, avtomobillar uchun yotqizilgan yo'llar bo'lishi shart. Bu joyda "PG" belgisi ko'zgacha ko'rinadigan qilib yozib qo'yilishi kerak.

Qurilish maydonida yonuvchan chiqindilar – yog'och qipqlari, payraxalar, qirindilar saqlanadigan joyni to'g'ri tanlash, ya'ni shamol chiqib ketadigan yo'nalish bo'yicha bino va inshootlardan kamida 50 metr masofada joylashtirish maqsadga muvofiq.

Jasurbek EGAMNAZAROV,

Mirobod tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi profilaktika va nazorat bo'linmasi mutaxassisi



PREZIDENTIMIZNING 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida qisqa muddatda huquq-tartibot idoralari yangicha ishlashga o'rgatadigan, odil sudlov sifatini oshiradigan tizim yaratilishi aytib o'tilgan edi.

Sud tizimida islohotlarning YANGI DAVRI

Joriy yilning 16-yanvarida qabul qilingan "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonlari hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar mamlakatimiz sud tizimida yangicha tizim joriy etilayotganidan dalolat beradi.



Mazkur hujjatlarga muvofiq, 2023–2026-yillarda sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli Strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha Harakatlar dasturi tasdiqlandi. Strategiya O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatini rivojlantirishning asosiy maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, sohaga ilg'or xalqaro standartlarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Strategiya doirasida quyidagilar odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalari etib belgilandi:

■ "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini

xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish;

■ adolati sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalarning siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish;

■ fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tarafdorlarning tortishuvi va teng huquqliligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish;

■ sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;

■ sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish;

■ davlat nomidan sud qarorlarini qabul qilayotgan sudlar va sudyalarga, shuningdek, ularning qarorlariga nisbatan har bir fuqaroda, shu jumladan, barcha darajadagi mansabdorlarda hurmat ruhini shakllantirish;

■ sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish choralari ko'rish;

■ sudyalarning va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkorda suddan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg'otish.

Strategiya doirasida belgilangan odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalari xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalarning siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish, fuqarolar hamda tadbirkorlarga huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishni ko'zda tutadi.

Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud ishlarini yuritishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat sudyalarning va sud tizimi xodimlaridan, har bir yurtdoshimizdan ulkan mas'uliyat va fidoyilikni, ijtimoiy faollikni talab etadi.

Bahodir QORAYEV,

Jinoyat ishlari bo'yicha Boyovut tuman sudi raisi

YODDA TUTING

INTERNETDA bir jinoyatni turlicha atashlariga guvoh bo'lamiz. Masalan, "Uyatli suratini tarqatmaslik uchun plastik kartasiga pul o'tkazishni talab qilgan tovlamachi", "Olx.uz e'lonlar sayti orqali fuqaroning pullarini o'zlashtirgan firibgar", "Onlayn qimorboz hamkasbining bank kartasidagi pullarini o'g'irladi" sarlavhalariga duch kelganda, birovning plastik kartasidan pul o'marish harakatlarini gohida firibgarlik, gohida o'g'rilik yoki tovlamachilik deb atalayotganini ko'ramiz.

TOVLAMACHILIK, FIRIBGARLIK, O'G'RILIK QANDAY FARQLANADI?



Aslida bunday qilmish tovlamachilikmi, firibgarlikmi yoki o'g'rilikmi? Bu jinoyatlarni bir-biridan qanday farqlash mumkin?

TOVLAMACHILIK — jabrlanuvchini u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirish bilan qo'rqitish, shantaj qilish orqali mulkini berishga majburlashdir. Masalan, jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki nobud qilish, sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitish.

FIRIBGARLIK — o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qo'lga kiritish.

O'G'RILIK — o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilish jinoyati hisoblanadi.

Firibgarlikning o'g'rilikdan farqi shundaki, firibgarlikda aybdor mulkni o'zganing egaligidan olib qo'yamaydi, balki jabrlanuvchining o'zi mulkni berishiga erishadi.

Tovlamachilikdan firibgarlik shu bilan farqlanadiki, tovlamachilikda jabrlanuvchi qo'rquv ta'sirida harakat qiladi, erki sindirilgan bo'ladi, firibgarlikda esa aldov natijasida jabrlanuvchining erki yanglishtirilgan, ya'ni xohish-irodasi chalg'itilgan bo'ladi.

Masalan, o'zganing plastik kartasidan pul o'zlashtirishni jinoyatni sodir etish usuliga ko'ra quyidagicha farqlash mumkin. Ya'ni:

■ talon-toraj yashirin ravishda sodir etilsa, o'g'rilik sifatida;

■ shantaj yo qo'rqitish orqali jabrlanuvchini o'z mulkini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish yo'li bilan sodir etilsa, tovlamachilik sifatida;

■ aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan amalga oshirilsa, firibgarlik hisoblanadi.

Akrom ARIPOV,

Oliy sud bosh konsultanti

E'OLONLAR

"Amir Temur" advokatlik firmasi advokati Abduraimov Abdurashidga 2018-yil 25-dekabrda berilgan GZ №000002-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda 002-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi uning vafot etganligi munosabati bilan tugatildi.

Advokat Umarov Botir Narzullayevich "Advokat Botir Umarov" advokatlik byurosiga ishga qabul qilinganligi munosabati bilan unga 172-sonli advokatlik guvohnomasi berildi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Jizzax shahar sudining 2022-yil 7-noyabrda hukmiga asosan Jizzax viloyatida faoliyat olib borayotgan "Kafolat" advokatlar hay'ati advokati Sultanov Mamarayim Kadirovichga 2018-yil 28-dekabrda berilgan GZ №000004-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda 040-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi tugatildi.

8 TADBIR

Davomi. Boshlanishi 1-betda

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi belgilanmoqda. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Huquqbuzarliklardan jabrlanganlar huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalashni va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'ri qoplashi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda advokatura uchun alohida bob bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu orqali ayblov va himoyaning tom ma'noda tengligini ta'minlashning mustahkam konstitutsiyaviy asoslari yaratilmoqda.

Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokatura faoliyatini tashkil etish va uning tartibi qonun bilan belgilanadi. Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan to'sqinliksiz va holi uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Eng muhimi, advokat va uning kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi.

Konstitutsiyaviy o'zgarishlar –
OLIMLAR NIGOHIDA

Ixtiyor BEKOV,
TDYU kafedra mudiri, yuridik
fanlar doktori, professor:

– Konstitutsiyaga oid takliflarning 20 foizi Parlamentni isloh qilish zarurligiga qaratilgan. Oliy Majlis faoliyatini isloh qilishda har ikki palata konstitutsiyaviy vakolatlarida takrorlanishlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bu boradagi xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularda parlamentning quyi palatasi "siyosiylashgan" palata bo'lib, siyosiy partiyalar fraksiyalari uchun siyosiy maydon hisoblanadi. Aksariyat davlatlarda hukumatni shakllantirish va uning faoliyatini nazorat qilish bevosita quyi palataning vakolatiga kiradi. Yuqori palatalar esa asosan hududlar manfaatini himoya qilish, mahalliy hokimiyat organlari manfaatlarini ifodalash, nazorat va maxsus xizmat idoralari faoliyatini nazorat qilishga yo'naltirilgan. Konstitutsiya loyihasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining vakolat va mas'uliyat sohalari aniq chegaralashni taklif etaman. Mazkur o'zgarishlar parlament faoliyatida parallelizmga yo'l qo'ymaslik va har ikki palata ishi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Xushvaqt HAYITOV,
yuridik fanlar doktori,
professor:

– Oliy Majlis palatalari davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. O'z navbatida, parlament palatalari vakolatlari o'rtasida aniq taqsimot, chegara belgilanishi, takrorlashlar bo'lmasligi ushbu organlar faoliyatining samaradorligi va mas'uliyatini oshiradi.

Mamlakatimizning yuqori palatasi – Senat o'zining ustuvor faoliyat yo'nalishlari sifatida hududlar manfaatlarini ifoda etishi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi, tashqi siyosatga oid muayyan vakolatlarini amalga oshirishi kerak.



Sherzod ZULFIQOROV,
yuridik fanlar doktori,
professor:

– Oliy Majlis Senatining qonunchilik jaryonidagi faoliyatini yanada takomillashtirish davr talabidir. Senat tomonidan qonunlarni ko'rib chiqish muddatining aniq belgilanishi, qonunlarning o'z vaqtida, yanada sifatli tayyorlanishini ta'minlaydi. Shu bois, yangilamayotgan Konstitutsiyada ilg'or xorijiy tajriba asosida qonunlarni Senat tomonidan ko'rib chiqish muddatlarini aniq belgilash maqsadga muvofiq. Masalan, xorij tajribasida Irlandiyada 21 kun, Rossiyada 14 kun, Polshada 30 kun, Qozog'istonda 60 kun qilib belgilangan.



Bahodir ISMOILOV,
yuridik fanlar doktori,
professor:

– Rivojlangan xorij davlatlari, jumladan, AQSh va Buyuk Britaniyada Parlamentning quyi palatasi stabilizator vazifasini o'taydi. Bizda ham shunday bo'lishi kerak.

Asosiy takliflarimizdan biri – qonunchiligimizga prim moddalarsiz normalarni kiritish kerak.

Tadbirda Konstitutsiyaviy qonun loyihasida belgilanayotgan yangi normalar olimlarning fikri bilan hamohang ekanligi ta'kidlanib, ular tomonidan loyiha qo'llab-quvvatlandi.

**"Inson va qonun" muxbiri
Marusa HOSILOVA tayyorladi**



AKSIYA DOIRASIDA

Qalb ko'zimiz
ochiq bo'lsin!

ADLIYA vazirligi hamda O'zbekiston Notarial palatasi
hamkorligida "Voristlik huquqi" aksiyasi o'tkazilmoqda.

Uning o'ziga xosligi notariuslar tomonidan fuqarolarga sayyor
tarzda xizmatlar ko'rsatilyapti, huquqiy tushuntirishlar berilib,
turli tadbirlar o'tkazilyapti.

Aksiya doirasida Sergeli tumanida noan'anaviy tadbir, ya'ni imkoniyati cheklangan insonlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. To'g'risi, hamma ma'ruza uchun so'zga, o'zlari nimani muhim deb bilgan bo'lsa, shunga tayyorgarlik ko'rilgan edi. Ammo tadbir boshlanganidan, biz muhim deganlarimiz emas, balki auditoriyada muhim bo'lgan ma'lumotlar bilan interaktiv suhbat boshlandi. Ko'plab hayotiy savollar, ko'pchilikni qiynayotgan muammolar haqida fikr yuritildi.

LOBAR OPANING MUAMMOSI

Lobar opa bolalikdan II guruh nogirani. Uning aytishicha, otasidan vasiyat qilib qoldirilgan uyni otasi vafotidan keyin 2 farzandi bilan bo'lib vaqti ham, uyni o'z nomiga o'tkazishga moliyaviy imkoniyati ham bo'lmas. Otadan ikkita uy qolgan. Biri ukasiga, biri Lobar opaga. O'rtada uka o'ziga tegishli uyni sotgan. Uyga boshqa odamlar ko'chib kelgan. Lobar opa 5 marta jarrohlik operatsiyasini boshidan kechirgan. Oyog'iga protez qo'ydirgan, hayot tashvishlari bilan bo'lib yana uyga kadastr hujjatlarini olish masalasi qolib ketavergan. Otasi 1996-yilda vafot etgan bo'lsa, o'shandan beri uy Lobar opaning nomiga o'tkazilmagan, biroq kommunal to'lovlar u tomonidan to'lab kelingan. Qo'lida uyning orderi bor, kadastr yo'q. Ayrim mutasaddilar bu hujjatsiz uyni o'z nomiga o'tkazishi mumkin emasligini aytib kelishgan. Opa otasidan qolgan uyni kichik o'g'lga rasmiylashtirish mumkinmi, yo'qmi? Shuni bilishga qiziqdi.

Notarius Sanjar Tojiddinovning ta'kidlashicha, agarda uyning orderi Lobar opaning qo'lida bo'lsa, unga kadastr hujjatini tiklash shart emas. Order, ya'ni uyga tegishli hujjatlar va o'zining pasporti bilan notarial idoraga murojaat qilsa, notariuslar eski meros ishini ko'rib chiqib, qonun talabidan kelib chiqqan holda va-

siyat bo'yicha merosni rasmiylashtirishlari mumkin. Keyin ushbu hujjat asosida kadastr hujjatlarini tayyorlash mumkinligi tushuntirildi.

TADBIRNING
KULMINATSIYASI TA'SIRLI ...

Tadbirda mutasaddi ishtirokchilarni o'ylantirgan, ularning ko'ngliga kuchli ta'sir o'tkaza olgan bir holat bo'ldi. Ya'ni, ma'ruzachilarning ko'zi yopiq holda surat chizish jarayoni boshlandi. Ikkinchi sherigi tomonidan ular atayin chalg'itib, qo'lidagi ruchka, flamasterlar almashtirilib turildi. Kimdir shamol, kimdir uy, kimdir globus, kimdir qishlog'ini tasvirlab rasmlar chizdi. Ammo barchaning chizgan suratlarini bir-birining ustiga chiqib ketgan, notekis, ayqash-uyqash, ranglar mutanosib emas. Bir sherigimizdan ko'zimiz yopiq holda hech bo'lmasa rangini aytib turing, deya yordam so'radik. Masalan, quyoshni qizil yoki yashil rangda chizib qo'yamlik, deb. Ammo yordam berish mumkin emas.

Tan olish kerak. Ko'zlarimiz bog'lanishi bilan imkoniyatimiz cheklandi... Bizga yordam kerak bo'ldi. Himoyaga, suyanchaga, mehribon qo'lga, qalbg muhtojlik sezdi. Tushunib, tushunmay turli harakatlar qildik. Noqulay ahvolda tushdik. Ularga qanchalik qiyinligini his etdik...

Imkoniyati cheklangan bo'ladimi yoki jismonan sog'lom insonlarni, murojaat qilib kelganida qalbidan o'tadigan kechinmalarni murojaatni tinglovchi odam sifatida qalbimizdan o'tkaza oldik. Ular hamisha yordamga, yaxshi so'zga, qo'llab-quvvatlashimizga, mehrga muhtojligini his etdik.

Xulosamiz shu: insonlar bilan ishlaganda qalb ko'zimiz ochiq bo'lsin!

Dilfuza ERGASHEVA,
"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi mas'ul xodimi

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2016-7897



**Bosh
muhammad**
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Muzraf Ikramov
Eldor Maxkamov
Shoxidaxon Yuldasheva
Sevara O'rinboyeva
Yorboq Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mayve, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3890
Buyurtma – 611

Tayyorlash vaqt – 19:00
Toshpirlidi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5